

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN  
BIR URUG‘PALLALI ENDEMIK O‘SIMLIKLAR**

**ODINOXON MIRZAYEVA KAXRAMON QIZI**

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

**O‘G‘ILJON GAFUROVA SHAVKATOVNA**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali dotsenti

**Annotasiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida uchraydigan va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bir urug‘pallali (*Monocotyledonae*) endemik o‘simliklarning oilalar kesimida taksonomik tarkibi, tarqalish hududlari hamda ularning hozirgi holati tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” (2019) ga 48 ta oila, 314 ta o‘simlik turi kiritilgan, 32 ta oila vakillaridan 262 ta turi yoki 83,44 % endemik turlar ekanligi, qolgan 16 ta oila vakillarida Qizil kitobga kiritilgan ammo endemik turlari mavjud emasligi aniqlandi. Bundan tashqari yuqorida tilga olingan endemik turlarning 19,1 % bir urug‘pallali endemik o‘simliklarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

**Kalit so‘zlar.** Endemik o‘simliklar, bir urug‘pallalilar, O‘zbekiston floras, Qizil kitob, taksonomiya va boshqalar.

**PLANTS INCLUDED IN THE RED BOOK OF THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN: MONOCOTYLEDONOUS ENDEMIC SPECIES**

**MIRZAYEVA ODINOXON KAKHRAMON QIZI**

Master’s Student, Guliston State Pedagogical Institute

**GAFUROVA O‘G‘ILJON SHAVKATOVNA**

Associate Professor, Yangiyer Branch of the Tashkent Institute of Chemical  
Technology

**Abstract.** This article analyzes the taxonomic composition by families, distribution areas, and current conservation status of endemic monocotyledonous (*Monocotyledonae*) plant species occurring in the territory of Uzbekistan and included in the Red Data Book of the Republic of Uzbekistan. The results show that the Red Data Book of the Republic of Uzbekistan (2019) includes 48 families

*comprising 314 plant species. Of these, 262 species belonging to 32 families, or 83.44%, are endemic, while representatives of the remaining 16 families are included in the Red Data Book but do not contain endemic species. In addition, it was determined that 19.1% of the above-mentioned endemic species belong to monocotyledonous endemic plants.*

**Keywords:** *endemic plants, monocotyledons, flora of Uzbekistan, Red Data Book, taxonomy, etc.*

## **ОДНОДОЛЬНЫЕ ЭНДЕМИЧНЫЕ РАСТЕНИЯ, ВКЛЮЧЕННЫЕ В КРАСНУЮ КНИГУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**МИРЗАЕВА ОДИНОХОН КАХРАМОН КИЗИ**

*Магистрант Гулистанского государственного педагогического  
института*

**ГАФУРОВА УГИЛЖОН ШАВКАТОВНА**

*Доцент Янгиюльского филиала Ташкентского химико-  
технологического института*

**Аннотация.** *В данной статье проанализированы таксономический состав по семействам, ареалы распространения и современное состояние эндемичных однодольных (Monocotyledonae) растений, встречающихся на территории Узбекистана и занесённых в Красную книгу Республики Узбекистан. Результаты исследования показали, что в Красную книгу Республики Узбекистан (2019) включены 48 семейств, объединяющих 314 видов растений. Из них 262 вида, относящиеся к 32 семействам, или 83,44 %, являются эндемичными, тогда как представители оставшихся 16 семейств включены в Красную книгу, но эндемичных видов не содержат. Кроме того, установлено, что 19,1 % вышеуказанных эндемичных видов приходится на однодольные эндемичные растения.*

**Ключевые слова:** *эндемичные растения, однодольные, флора Узбекистана, Красная книга, таксономия и др.*

## **Kirish**

O'zbekiston florasida yuqori darajada boy va o'ziga xos bo'lib, unda ko'plab endemik turlar uchraydi. Respublikada endemizm, ayniqsa bir urug'pallali o'simliklar (Monocotyledonae) orasida keng tarqalgan bo'lib, ular asosan quruq tog' tizmalari, tog' yon bag'irlari va cho'l-landshaft hududlariga moslashgan. Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston hududida uchraydigan bir urug'pallali endemik va ayni paytda Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarning taksonomik tarkibini aniqlash, tarqalish xususiyatlarni tahlil qilish.

**Materiallar va uslublar:** Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"i ma'lumotlari, "Flora Uzbekistana" seriyasi ilmiy maqolalar asosida tahlil ishlari olib borildi. Endemik turlarni oila bo'yicha guruhlash, har bir oilaning endemizm darajasini aniqlash (tur soni), tog' tizimlari va floristik rayonlar bo'yicha taqsimlanishni aniqlash, statistik taqqoslash uslublari qo'llanildi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Endemik turlarni har tomonlama o'rganish, hudud florasida va o'simliklar qoplamini shakllanishiga doir evolyutsion bosqichlarga aniqlik kiritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'simlik resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. O'zbekiston florasini balki turli sifatga egaligi haqida ham tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beradi. [7]

Tor endemik o'simlik turlarining tarqalishini tahlil qilish asosiy ekologik naqshlarni ochib berishi va tabiatni muhofaza qilish sa'y-harakatlarini boshqarish uchun muhim tushunchalar berishi mumkin. Ushbu tadqiqot Hindistondagi Uttarakhandning endemik angiospermlarining fitoetimologik tahlil va turlarning xilma-xilligi va tabiatni muhofaza qilish holatini baholash bilan birga keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish natijasida olingan yangilangan inventarizatsiyasini taqdim etadi. Tadqiqot natijalari Kumaon va Garhvalda 45 ta endemik taksonni va ikkala mintaqada ham 11 ta turni, Uttarakhandda 71 ta avlodda jami 101 ta endemik turni aniqladi. [5]

Iqlim inqirozi va bioxilma-xillikning yo'qolishi turlarning, ayniqsa tarqalish diapazoni cheklangan endemik turlarning omon qolishiga jiddiy ta'sir

ko'rsatadigan ikkita o'zaro bog'liq global muammodir. Haroratning o'zgarishi, yog'ingarchilik rejimi va dengiz sathining ko'tarilishi, ayniqsa Indoneziya kabi yirik bioxilma-xillik mintaqalarida tabiiy yashash joylarining degradatsiyasini tezlashtirdi. Anoa, jannat qushi va turli xil amfibiya turlari kabi endemik turlar endi yashash joylarining parchalanishi, o'rmonlarning kesilishi va iqlim ofatlari tufayli tobora murakkab ekologik bosimga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqotda ekologik, iqlim va ekologik huquqiy nuqtai nazarlarni birlashtirgan tavsifiy-tahliliy sifat yondashuvi qo'llaniladi. [4]

Endemizm o'simliklarning ekologik sharoitlari va jarayonlaridagi murakkab tuzilish, vaqt va fazoviy nuqtai nazardan o'zgarishi natijasida paydo bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, Turkiya dunyodagi o'zgaruvchan ekologik sharoitlarga ega eng muhim davlatlardan biri bo'lib, taxminan 12000 ta o'simlik taksoni va 3/1 endemik ko'rsatkichga ega. Endemik o'simliklarning bu bo'yligini aniqroq aniqlash, baholash, monitoring qilish va saqlash faqat mavjud endemik o'simliklarning tarqalishi va ularning xususiyatlari ma'lum bo'lgan taqdirdagina mumkin. [8]

Bioxilma-xillikning asosiy naqshlarini hujjatlashtirish va ustuvor hududlarni aniq belgilash tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tadqiqotlarning dastlabki bosqichlari hisoblanadi. Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar va IUCN (Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi) Qizil ro'yxatlari muhofaza qilinadigan hududlarni aniqlash uchun keng qo'llaniladigan vositalar qatoriga kiradi. Turkiya dunyodagi eng muhim biologik xilma-xillik markazlaridan biridir. [9]

Gretsiya yuqori o'simliklar xilma-xilligi (5800 tur) va endemizm (15,6%) bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqot yunon endemik o'simliklarining taksonomiyasi, tarqalishi, xususiyatlari va saqlanish holatini birinchi marta umumiy baholashga harakat qiladi. Endemik turlar 56 oila va 242 turkumga tegishli. Endemik turlar barcha balandliklarda uchraydi, ammo balandlik bo'yicha taqsimot orol mintaqalarida 0–600 m balandlikda va kontinental mintaqalarda yuqori zonalarda mahalliy endemiklarning ustunligini ko'rsatadi. [ 6]


## Asosiy qism

O'zbekiston florasida Markaziy Osiyoda biologik xilma-xilligi yuqori bo'lgan hududlardan biri bo'lib, respublika florasida 4500 dan ortiq yuksak o'simlik turlari mavjud. Shulardan 500 ga yaqin turi endemik turlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobining 2019-yilgi nashriga ko'ra, 262 ta endemik tur qayd etilgan bo'lib, shundan bir urug'pallali endemik turlar soni 50 ta yoki 19,1 % ni tashkil etadi.

1-jadval

### O'zbekiston florasida uchraydigan endemik o'simliklarning tahlili

| T/r | Turlar soni                                                 | Endemiklik darajasi, % |
|-----|-------------------------------------------------------------|------------------------|
| 1   | Respublika florasida, 4500 ta                               | 85 %                   |
| 2   | Endemik turlar, 500 ta                                      | 9 %                    |
| 3   | Qizil kitobga kiritilgan endemiklar, 262 ta                 | 6 %                    |
| 4   | Qizil kitobga kiritilgan bir urug'pallali endemiklar, 50 ta | 1 %                    |



1-diagramma. O'zbekiston florasida uchraydigan endemik o'simliklarning tahlili

**Loladoshlar oilasi** – bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, piyozchali va tugunakli ko‘p yillik o‘tlar. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 21 ta turi kiritilgan bo‘lib, shundan 16 ta turi yoki 76,2 % endemikdir. Ulardan 4 ta turi yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar, 2 ta turi kamyob (Maqomi-2) turlar, 10 ta turi son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) turlar kategoriyalaridan o‘rin olgan. Urug‘idan va piyozi orqali ko‘payadi. Loladoshlar oilasi G‘arbiy Tyan-Shanning barcha tizmalari; G‘arbiy Pomir-Oloyning Zarafshon, Turkiston, Hisor tizmalarida tarqalgan. Oila vakillari: Lyudmila boychechagi, Xolmon isirg‘aguli, Korolkov lolasi, Oq lola, Qizil lola (Greyg lolasi), Foster lolasi, O‘zbekiston lolasi va boshqalar.

**Savrinjondoshlar oilasi** – bir urug‘pallali o‘simlik bo‘lib, O‘zbekistonda 2 ta turkumga mansub 3 ta turi o‘sadi. Hayotiy shakli ko‘p yillik tugunak piyozli o‘t. Manzaraligi jihatdan alohida o'rinda turadi. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga 1 ta endemik turi (Kesselring savrinjoni) kiritilgan. Kesselring savrinjoni son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) endemik o‘simlik. Asosan Toshkent, Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlarida G‘arbiy Tyan-Shan (Qurama, Chotqol tizmasi), Pomir-Oloy (Nurota, Qo‘g‘itang, Turkiston, Zarafshon, Hisor ) tizmalarida tarqalgan.



**1-rasm. Kesselring sarvinjoni**



**2-rasm. Qizil lola (Greyg lolasi)**

**Chuchmomadoshlar oilasi** – bir urug‘pallali o‘simlik bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 17 ta tur kiritilgan, shundan 15 ta turi yoki 88,23 % endemikdir. Ulardan 1ta turi kamyob turlar (Maqomi-2), 11 ta turi yo‘qolish

arafasida turgan (Maqomi-1) va 1 ta turi esa son jihatdan kamayib borayotgan turlar (Maqomi-3) kategoriyalaridan o‘rin olgan. Oila vakillari ko‘p yillik o‘t o‘simlikdan iborat. Urug‘idan va vegetative yo‘l bilan ko‘payadi. Tyan-Shan (Piskom, Ugom, Chotqol va Qurama) va Pomir-Oloy (Zarafshon, Qo‘g‘itang va Hisor) tizmalarida tarqalgan. Asosiy oila vakillar: Aralash piyoz, Aflotun piyozi, Piskom piyozi, Oloy piyozi, Bochansev piyozi, Bakxauz piyozi, Katta piyoz, Yirik piyoz, Isoqul piyozi, Pushti gulli piyoz, Raven piyozi, Manzarali piyozi, Sahro piyozi (cho‘l piyozi), Yashil gulli piyoz va Biktor omonqorasi.

2-jadval

**Bir urug‘pallali endemik turlarning oila kesimida tahlili**

| T/r | Oila nomi        | Jami turlar soni | Qizil kitobga kiritilgan turlar | Qizil kitobdagi endemik turlar | Ulushi (%) |
|-----|------------------|------------------|---------------------------------|--------------------------------|------------|
| 1   | Loladoshlar      | 200              | 21                              | 16                             | 76,2 %     |
| 2   | Chuchmomadoshlar | 80-90            | 17                              | 15                             | 88,23 %    |
| 3   | Shirachdoshlar   | 21               | 12                              | 9                              | 70 %       |
| 4   | Bug‘doydoshlar   | 270              | 3                               | 2                              | 66,67 %    |
| 5   | Gulsafsardoshlar | 30               | 7                               | 5                              | 71,42 %    |
| 6   | Giasintdoshlar   | 30               | 1                               | 1                              | 100 %      |
| 7   | Tuyatovondoshlar | 14               | 1                               | 1                              | 100 %      |
| 8   | Savrinjondoshlar | 3                | 1                               | 1                              | 100 %      |

**Bug‘doydoshlar oilasi** – bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, O‘zbekistonda 491 turkunga oid 270 ta turi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 3ta turi kiritilgan bo‘lib, shundan 2 ta turi yoki 66,67 % endemikdir. Bug‘doydoshlarning ikkala turi ham kamyob (Maqomi-2) turlar kategoriyasidan

o‘rin olgan. Hayotiy shakli bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik o‘tlardan tashkil topgan. Markaziy Qizilqumning qoldiq tog‘lari (Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Buxoro viloyatlari); Shimoli-g‘arbiy Tyan-Shan va Navoiy viloyati: Nurota tog‘ining g‘arbiy qismi, Qoratog‘ va Oqtog‘ tizmalarida tarqalgan. Oila vakillari: Oqtog‘ chalovi va Qoratog‘ chalovi.

**Shirachdoshlar oilasi** - bir urug‘pallali o‘simlik bo‘lib, Yer yuzida 50 turkumga oid 1400 turni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda florasida 21 turi bor. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 12 ta tur kiritilgan bo‘lib, shundan 9 ta turi yoki 70 % endemikdir. Ulardan 2 ta turi kamyob (Maqomi-2) turlar, 3 ta turi son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) turlar, 3 ta turi yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar, 1 ta turi esa yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin (Maqomi-0) kategoriyasidan o‘rin olgan. Hayotiy shakli ko‘p yillik o‘t. Urug‘idan ba‘zan vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi. G‘arbiy Tyan-Shanning Qurama, Ugom, Piskom, Chotqol (Toshkent viloyati), Nurota (Navoiy va Jizzah viloyati) tizmalari va Janubi-g‘arbiy Pomir-Oloyning Hisor (Surxondaryo viloyati) Turkiston (Jizzah, Samarqand), Qo‘g‘itang (Surxondaryo viloyati) tizmalarida tarqalgan. Asosiy oila vakillar: Beshtomir shirach, Boysun shirachi, Korovin shirachi, Momiq shirach, Nor shirach (xulka bola), Nurota shirachi, Oqgulli shirach, Suvorov shirachi, Yashil gulli shirach.

**Gulsafsardoshlar oilasi** – bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, O‘zbekistonda 30 dan ziyod turi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 7 ta turi kiritilgan bo‘lib, shundan 5 ta turi yoki 71,42 % endemikdir. Ulardan 1 ta turi son jihatdan kamayib borayotgan (Maqomi-3) turlar, 2 ta turi kamyob (Maqomi-2) turlar, 2 ta turi yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar kategoriyalaridan o‘rin olgan. Bu oila vakillari ko‘p yillik ildizpoyali, piyozboshli yoki tugunaksimon ildizli o‘simliklardir. Urug‘idan yoki tugunak piyozlaridan ko‘payadi. G‘arbiy Tyan-Shanning Qurama, Chotqol, Qorjontov, Piskom tizmalari (Toshkent viloyati); G‘arbiy Pomir-Olayning Zarafshon va Hisor (Qashqadaryo viloyati) tizmalari; Janubiy Pomir-Olayning Qo‘g‘itang (Surxondaryo viloyati)



tizmalarida tarqalgan. Oila vakillari: Orxideyanamo gulsafsar, Ippolit gulsafsari, Svetlana Gulsafsari, Viktor Gulsafsari, Antiqa gulsafsar.



**3-rasm. Orxideyanamo gulsafsar**



**4-rasm. Nor shirach (xulka bola)**

**Tuyatovondoshlar oilasi** – bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, Yer yuzida 22 turkumga kiruvchi 220 dan ortiq turdan tashkil topgan. O‘zbekistonda 2 turkumga mansub 14 ta turi o‘sadi. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 1 ta endemik turi (Buxoro tuyatovoni) kiritilgan bo‘lib yo‘qolish arafasida turgan (Maqomi-1) turlar kategoriyasidan o‘rin olgan. Oila vakillari ko‘p yillik o‘t va butalar hisoblanadi. Buxoro tuyatovoni Janubiy Pomir-Oloyning (Surxondaryo viloyati) Qo‘g‘itang tizmasida tarqalgan.

**Giasintdoshlar oilasi** – bir urug‘pallali o‘simliklar bo‘lib, O‘zbekistonda 30 dan ortiq turi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga 1 ta endemik turi (Turkiston dipkadiysi) kiritilgan bo‘lib, yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin (Maqomi-0) kategoriyasidan o‘rin olgan. Hayotiy shakli ko‘p yillik o‘t. Turkiston dipkadiysi Surxondaryo viloyati: Sherobod vodiysidagi Xoldak qoldiq tog‘ida uchraydi.

## **XULOSA**

O‘zbekiston Respublikasi hududida bir urug‘pallali endemik o‘simliklar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida Qizil kitobga kiritilgan bir urug‘pallali endemik o‘simliklarning oilalar kesimida tarqalishi tahlil qilinib, ularning asosiy qismi tog‘ mintaqalarida — Ugom–Chotqol, Hisor, Zarafshon,

Nurota va Qo'g'itang tog' tizimlarida to'plangani aniqlandi. Endemik turlar soni bo'yicha chuchmomadoshlar, loladoshlar va gulsafsardoshlar oilalari yetakchi o'rinni egallaydi. Qizil kitobga kiritilgan bir urug'pallali endemik o'simliklarning katta qismi antropogen omillar — yerlarning o'zlashtirilishi, yaylovlarning degradatsiyasi, noqonuniy yig'ib olish hamda iqlim o'zgarishi ta'siri ostida yo'qolib ketish xavfi bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, olingan natijalar Qizil kitobga kiritilgan bir urug'pallali endemik o'simliklarning oilalar kesimida tarqalishini o'rganish O'zbekiston florasining taksonomik tarkibini chuqurroq anglash biologik xilmaxillikni muhofaza qilish strategiyalarini ishlab chiqish, tabiiy areallarini saqlab qolish va populyatsiyalar holatini muntazam monitoring qilish hamda qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tarmog'ini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi" 1-jild Toshkent – 2019
2. O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi" 1-jild Toshkent – 2016
3. Сенников А. Н. Флора Узбекистана том 2 Издательство «Навруз» Ташкент 2017.
4. Aditya, Henu Sista. "Climate Crisis and Biodiversity: A Study on the Loss of Habitat and Endemic Species." *KnE Social Sciences*, vol. 10, no. 26, 29 Oct. 2025, pp. 358–363, <https://doi.org/10.18502/kss.v10i26.20013>. Accessed 2 Nov. 2025.
5. Balkrishna, A., et al. "Endemic Plants of Uttarakhand (India): Their Distribution, Phytoetymological Assessment and Conservation." *Ceylon Journal of Science*, vol. 54, no. 4, 13 Nov. 2025, pp. 1279–1302, <https://doi.org/10.4038/cjs.v54i4.8648>. Accessed 12 Dec. 2025.
6. GEORGHIOU, KYRIACOS, and PINELOPI DELIPETROU. "Patterns and Traits of the Endemic Plants of Greece." *Botanical Journal of the Linnean Society*, vol. 162, no. 2, 27 Jan. 2010, pp. 130–153, <https://doi.org/10.1111/j.1095-8339.2010.01025.x>.

7. Numatov Ro'zimuhammad Tojimurodovich, Janniyeva Sevinch Elmurod qizi, Bekbutayeva Sevinch Hatam qizi. "SURXONDARYO HUDUDIDAGI ENDEMIK TURLAR." *Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research)*, 5 June 2025, <https://doi.org/10.5281/zenodo.15598420>. Accessed 5 Dec. 2025.
8. Şenkul, Çetin, and Seda Kaya. "TÜRKİYE ENDEMIK BİTKİLERİNİN COĞRAFİ DAĞILIŞLARI." *Türk Coğrafya Dergisi*, 15 Dec. 2017, <https://doi.org/10.17211/tcd.322515>. Accessed 7 Oct. 2021.
9. Türe, Cengiz, and Harun Böcük. "Distribution Patterns of Threatened Endemic Plants in Turkey: A Quantitative Approach for Conservation." *Journal for Nature Conservation*, vol. 18, no. 4, Dec. 2010, pp. 296–303, <https://doi.org/10.1016/j.jnc.2010.01.002>.